

QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI HUDUDIIY JOYLASHTIRISHGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Abdiholiqova G.A.

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini hududiy joylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tizimli tahlil qilingan. Viloyatning tabiiy-resurs salohiyati, transport-logistika infratuzilmasi, mehnat resurslari, ekologik va iqlimiy xususiyatlari hamda institutsional sharoitlari nuqtayi nazaridan kichik sanoat zonalarining optimal joylashuvi uchun asosiy mezonlar ko'rib chiqilgan. Maqolada joylashtirishga doir muammolar va ularni hal etish yo'llari ham yoritilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Qashqadaryo viloyati, kichik sanoat zonalari, hududiy joylashtirish, tabiiy resurslar, infratuzilma, mehnat bozori, ekologik omillar, ixtisoslashuv, hududiy rivojlanish.

Abstract: This article systematically analyzes the main factors affecting the territorial location of small industrial zones in the Kashkadarya region. The main criteria for the optimal location of small industrial zones are considered in terms of the region's natural resource potential, transport and logistics infrastructure, labor resources, environmental and climatic characteristics, and institutional conditions. The article also highlights the problems of location and ways to solve them, and develops practical recommendations.

Keywords: Kashkadarya region, small industrial zones, territorial location, natural resources, infrastructure, labor market, environmental factors, specialization, territorial development.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida kichik sanoat zonalari (KSZ) iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning samarali mexanizmi sifatida keng tatbiq

etilmoqda. Xitoy, Hindiston, Turkiya kabi mamlakatlarda kichik sanoat zonalarini ishlab chiqarishni joylashtirish, ishsizlikni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan davlatlar bu zonalarini innovatsion markazlar bilan bog'lash orqali mahalliy korxonalarni global bozorga integratsiyalashga erishmoqda. Hududiy ixtisoslashuv va resurslardan oqilona foydalanish prinsipiga asoslangan bunday zonalar jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham kichik sanoat zonalarini tizimini iqtisodiy islohotlar doirasida joriy etmoqda. Prezident qarorlari asosida respublika miqyosida o'nlab zonalar tashkil etilib, ularga yengilliklar, soliq imtiyozlari va yer ajratish mexanizmlari belgilandi. Bu KSZlar kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularni joylashtirishda hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma darajasi va ijtimoiy ko'rsatkichlari hisobga olinmoqda.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston janubida joylashgan bo'lib, tabiiy resurslarga boyligi, ishchi kuchi salohiyati va transport-kommunikatsion qulayliklari bilan ajralib turadi. Viloyatda kichik sanoat zonalarini hududiy joylashtirishda neft-gaz, konchilik, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari sanoati va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish tarmoqlari yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, aholining demografik tarkibi, iqlim sharoitlari, ekologik cheklovlar va logistika imkoniyatlari KSZlarning qanday va qayerda tashkil etilishi zarurligini belgilovchi muhim omillardan sanaladi. Shu sababli, bu zonalarini samarali va maqsadli joylashtirish masalasi chuqur tahlil va ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Qashqadaryo viloyatida sanoatning hududiy jihatdan nomutanosib rivojlanishi, ayrim tumanlarda iqtisodiy faollikning pastligi va mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmasligi mavjud muammolardan biridir. Kichik sanoat zonalarini ilmiy asosda joylashtirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish, hududlararo iqtisodiy tenglikni ta'minlash, yangi ish

o'rinlarini yaratish va mahalliy xomashyoni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shu bois, KSZlarning hududiy joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish viloyatning barqaror va muvozanatli rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-resurs salohiyati. Qashqadaryo viloyati tabiiy boyliklarga nihoyatda boy bo'lib, bu jihat kichik sanoat zonalarini tashkil etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Neft-gaz konlari (Muborak, G'uzor), tog'-kon resurslari (Dehqonobod, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog'), marmar, ohaktosh, kaolin, shag'al kabi qurilish materiallari konlari viloyatda mavjud bo'lib, ularning sanoatga jalb etilishi katta iqtisodiy samaradorlik keltiradi. Ayniqsa, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida qurilish sanoatiga ixtisoslashgan zonalarini tashkil etish, ushbu resurslarni joyida qayta ishlash orqali mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Qarshi, Kasbi, Koson, Nishon, Mirishkor, Qamashi kabi qishloq xo'jaligi rivojlangan tumanlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik sanoat zonalarini ochilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, paxta, go'sht, sut, meva-sabzavot mahsulotlari qayta ishlanib, mahalliy va eksport bozorlariga yetkazilishi mumkin. Bu esa, xomashyoga yaqin joyda ishlab chiqarish tashkil etilishi hisobiga logistika xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Resurs salohiyatining mavjudligi – ishlab chiqarish barqarorligi, mahsulot sifati va uzluksizligi uchun hal qiluvchi omildir.

Transport va logistika infratuzilmasi. Kichik sanoat zonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning transport va logistika infratuzilmasi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Qashqadaryo viloyati bu borada nisbatan qulay joylashuvga ega bo'lib, Qarshi–Termiz temir yo'li, xalqaro avtomobil yo'llari (masalan, A-380), shuningdek, Qarshi xalqaro aeroporti mavjudligi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga tezda yetkazib berish imkonini beradi. Transport tarmoqlari sanoat zonalarini eksport-import yo'nalishlari bilan integratsiya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, Qarshi shahri va uning atrofida yirik logistika markazlarini tashkil etish orqali nafaqat viloyat, balki janubiy mintaqaning butun sanoat salohiyatidan samarali foydalanish mumkin. Ushbu logistika infratuzilmasi kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Markaziy Osiyo bozorlariga chiqarishda o'ziga xos ko'priq vazifasini bajaradi. Transport qulayligi bo'lgan joylarda sanoat faoliyatini yo'lga qo'yish tadbirkorlar uchun xarajatlarni kamaytiradi, yetkazib berish muddatini qisqartiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Aholi va mehnat resurslari taqsimoti. Qashqadaryo viloyati aholisi 3 milliondan oshiq bo'lib, ularning katta qismi mehnatga layoqatli yoshdagilar hisoblanadi. Ayniqsa, Muborak, Nishon, Kasbi kabi tumanlarda aholining zich joylashuvi, mehnat resurslarining mavjudligi kichik sanoat zonalarini uchun kadrlar zaxirasini ta'minlaydi. Bu tumanlarda ishchi kuchi talab qiluvchi sohalarni (yengil sanoat, qadoqlash, yig'uv va qayta ishlash korxonalarini) rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlik ham beradi — bandlik darajasi oshadi, ijtimoiy keskinlik kamayadi.

Bundan tashqari, viloyatda Qarshi davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari mavjud bo'lib, bu yerda tayyorlanayotgan mutaxassislar sanoat zonalarini uchun zarur kadrlar bazasini shakllantiradi. Malakali ishchi kuchining mavjudligi yangi texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy ishlab chiqarish liniyalarini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sifatli mehnat resurslari – ishlab chiqarish quvvatlarining doimiy va samarali ishlash garovidir.

Iqlim va ekologik omillar. Qashqadaryo viloyatining iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozda issiq va qurg'oqchil, qishda esa sovuq ob-havo hukm suradi. Mirishkor, Nishon, Muborak tumanlarida suv tanqisligi muammosi mavjud bo'lib, bu zonalarida sanoat joylashtirishda ekologik va iqlimiy cheklavlarni hisobga olish zarur. Suv resurslaridan tejamkor foydalanish, ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlari uchun suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash dolzarb

masalalardan biridir. Iqlimiy sharoitga moslashgan ishlab chiqarish shakllarini tanlash – resurslardan samarali foydalanish demakdir.

Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik masalasi ham KSZlarni joylashtirishda e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Atmosfera havosiga chiqariladigan chiqindilar, yer resurslarining degradatsiyasi va chiqindilarni utilizatsiya qilish kabi masalalar har bir zonada ekologik monitoring tizimini joriy etishni talab qiladi. Hududiy joylashtirishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini inobatga olgan holda, ekologik muvozanatni saqlash KSZlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy va institutsional omillar. Kichik sanoat zonalarini joylashtirish va rivojlantirishga iqtisodiy va institutsional omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi hollarda yer ajratishdagi byurokratik to'siqlar, infratuzilmaning zaifligi, kommunikatsiya tarmoqlarining yetishmasligi investorlar faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Moliyaviy resurslarga cheklov, uzoq muddatli kreditlar va subsidiyalar tizimining to'liq ishlamasligi yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishda to'siq bo'lib qolmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv talab etiladi.

Shu munosabat bilan, har bir tuman uchun iqtisodiy ixtisoslashuv asosida ishlab chiqilgan sanoat rivojlanish strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. "Yagona darcha" tamoyili asosida ruxsatnomalarni elektron tarzda olish imkoniyatini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma yaratish, investitsion xavflarni kamaytirish bo'yicha kafolatlar berish orqali bu tizimning samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, hududiy KSZlar uchun soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari kabi rag'batlantiruvchi choralarni joriy etish investorlar oqimini oshiradi.

Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarining hududiy joylashuvi bir qator tabiiy-geografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Xususan, transport infratuzilmasining rivojlanganligi, xom ashyo manbalariga yaqinlik, ishchi kuchi mavjudligi va hududning tabiiy-iqlim sharoitlari sanoat zonalarini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, mavjud

infratuzilma salohiyati va bozor talabining yuqoriligi kichik sanoat subyektlari uchun qulay muhit yaratadi.

Bundan tashqari, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsional qo'llab-quvvatlov, soliq imtiyozlari va kredit imkoniyatlari kichik sanoat zonalarining hududiy rivojlanishini jadallashtirmoqda. Viloyatning turli tumanlarida bu omillar turlicha namoyon bo'lib, joylashuvda differensial yondashuv zaruratini yuzaga keltiradi. Shu boisdan, kichik sanoat zonalarini joylashtirishda kompleks hududiy tahlil va uzoq muddatli strategik rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Колосовский Н.Н. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2006. – 336 с.
2. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005. – 280 с.
3. Саушкин Ю.Г. Географическое мышление. – Смоленск: Ойкумена, 2011. – 218 с.
4. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Т: Камалак, 2013. – 184 б.
5. Krugman, Paul. Geography and Trade. MIT Press, 1991.
6. Porter, Michael E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.
7. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report 2023: Global Value Chains and Development.
8. Abdiholiqova Gulnovruzkhon. Scientific-theoretical bases of regional location of industrial sectors // International multidisciplinary journal for research & development. India, Volume 10, issue 12 (2023)
9. Abdikholiqova G.A. The main characteristics of the development of Uzbekistan industry networks // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №2 (117), 2024.
10. Abdiholiqova G.A. Scientific-methodical basis of industrial geography of Uzbekistan // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th December, 2023 ISSN: 2835-3730